

MUSTAQILLIK YILLARIDA MAMLAKATIMIZDA TARIX FANINI RIVOJLANISHIDA XORAZM MA'MUN AKADEMIYASINING O'RNI

Abdinabihev Hikmatilla Ehsonovich
Termiz shahri. O'zbekiston

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xorazm qadimdan jahon ilm-fani rivojida o'z o'rniga ega akademiyalaridan biri Xorazm Ma'mun akademiyasining rivoji va mustaqillikdan keyin bu ilm ma'rifat maskanini qaytadan tashkil etilishi va bugungi kundagi ilmiy-tadqiqot faoliyatiga bag'ishlanadi.

Kalit so'zlar: *Ibn Xavqal, Muso al-Xorazmiy va Abu Rayhon Beruniy, Mahmud Zamakhshariy va Najmuddin Kubro, Pahlavon Mahmud va Ogahiy, Bayt ul-Hikma, Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi, Xorazm tarixi va madaniyati muzeyi.*

Аннотация: В данной статье рассматривается развитие Хорезмской академии Маъмуна, одной из академий Хорезма, долгое время занимавшей свое место в развитии мировой науки, и реорганизация этого места познания и просвещения. после обретения независимости, а также его текущая научно-исследовательская деятельность.

Ключевые слова: *Ибн Хавкал, Муса аль-Хорезми и Абу Райхан Беруни, Махмуд Замахшари и Наджмуддин Кубро, Пахлавон Махмуд и Огахи, Байт уль-Хикма, информационный бюллетень Академии Хорезм Маъмун, Хорезмский историко-культурный музей.*

Abstract: *In this article, the development of Khorezm Ma'mun Academy, one of the academies of Khorezm, which has had its place in the development of world science for a long time, and the re-organization of this place of knowledge and enlightenment after independence, as well as its current scientific research activities.*

Key words: *Ibn Hawqal, Musa al-Khorazmi and Abu Rayhan Beruni, Mahmud Zamakhshari and Najmuddin Kubro, Pahlavon Mahmud and Ogahi, Bayt ul-Hikma, Khorezm Ma'mun Academy newsletter, Khorezm History and Culture Museum.*

Xorazm zamini qadimdan jahon ilm-fani rivojida o'z o'rniga ega bo'lgandir buni bizga ma'lum bo'lgan Xorazm Ma'mun akademiyasining qisqa davr bo'lsada faoliyat yuritgan bo'lishiga qaramay o'ziga ilm-fan ravnaqida o'z o'rniga ega bo'lgan ilm-fan markazlaridan biri bo'lganligi bilan izohlashimiz mumkin. Mashhur arab geografi Ibn Xavqal o'zining "Yo'llar va mamlakatlar" nomli X asr birinchi choragida yozilgan asarida Xorazm mintaqasiga ta'rif berayotib, Xorazm aholisining ilmga chanqoqligi va zukkoligi haqida ham aytib o'tadi va "Hozir

Bag'dodda xorazmlik shogirdi bo'limgan birorta qozi, faqih yoki ilm-ma'rifatga aloqador shaxs yo'q", - deb yozadi. Tom ma'noda olganda Xorazm zamini dunyoga yetuk allomalar bilan birga ilm-ma'rifat madaniyat markazi bo'lganligi bilan bir qatorda Ma'mun akademiyasi bilan ham mashur hisoblanadi.

Birinchi pezidentimiz I.Karimovning Xiva shahrining 2500 yilligiga bag'ishangan tantanlaridagi nutqida "Bundan ming yil muqaddam odamzod tarixidagi ilk akademiyalardan bo'lmish – Ma'mun akademiyasi Xorazm zaminida tashkil topgani bilan har qancha faxrlansak arziyi, albatta. O'ylaymanki, biz Ma'mun akademiyasini Xorazm zaminidan qaytadan tashkil etsak ko'p ulug' ish bo'lar edi. Xorazm zaminida yashagan Pahlavon Mahmud, Sulton Vays, Nosiruddin Rabg'uziy, Sulaymon Boqirg'oniy, Bahouddin Valad va uning buyuk farzandi Jaloliddin Rumiy, Abulqosim Ali Xorazmiy, Ismoil Jurjoniy, Sirojiddin Sakkokiy, Munis, Ogahiy, Bayoniy, Safo Mug'anniy, Chokar Sheroziy, Xojixon, Bola baxshi kabi o'nlab va yuzlab allomalar, shoirlar va sa'natkorla nomini biz bugungi avlod vakillari cheksiz ehtirom bilan tilga olamiz va boshimizga ko'taramiz. Barchamizga yaxshi ma'lum: Xivaning madrasalaridailm-fan cho'qqilarini zabit etgan, mana shu ziyo va bilim maskanlarida ta'lim olgan mutaffakirlar, din peshvolari nafaqat O'zbekiston va O'rta Osiyo tarixida, dunyoning uzoq-uzoq yurtlarida ham mo'tabar nomlarini, o'chmas izlarini qoldirganlar. Buni hech kim inkor qila olmaydi deb o'ylayman. Xivaning yosh avlod qalbida o'zligini anglash, bebahoh merosimizga vorislik, xalq yaratuvchilik dahosiga hurmat, bunyodkorlik ishlariga rag'bat tuyg'ularini uyg'otishga ishonaman. Bu tabarruk zaminda yetishib chiqadigan yuzlab Xorazmiylar, Beruniylar, Zamaxshariylar o'zlarining tengsiz salohiyati bilan jumlai jahonni hayratga soladi" deb bejizga ta'kidlamagan edilar.

Bu yerda faoliyat olib borgan olimlardan XX asrda Abu Rayhon Beruniy ijodini o'rganish munosabati bilan Abul Abbas Ma'mun II atrofidagi ilmiy muassasa ham har tomonlama o'rganildi va bu muassasa ko'p tarafdan Bag'doddagi "Bayt ul-Hikma"ga o'xshashligi va ham o'z davrining akademiyasi ekanligi isbotlandi va unga "Ma'mun akademiyasi" nomi berildi. Ko'pchilik olimlarning fikriga ko'ra, uning faoliyat ko'rsata boshlagan davri, ya'ni olimlar to'la yig'ilib, ilmiy izlanishlar olib borilgan davri 1004 yilga to'g'ri keladi, ilm-fanning taraqqiy etishini uzoq davrlar bilan bog'lashimiz mumkin. Shuningdek ilm-fan rivojlangan davlatlarda ilm-ma'rifat g'oyasi shakllangandir. Xorazm Ma'mun akademiyasini qaytadan tashkil etish borasida O'zbekiston respublikasi prezidenti maxsus farmon imzoladi. Xorazm Ma'mun akademiyasi — O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyaning mintaqaviy bo'limi Xiva shahrida tashkil etildi. Xorazm Ma'mun akademiyasi faoliyatini ta'minlash uchun tegishli moddiy texnik baza shakllantirish jarayoni ham moliya vazirligi va boshqa tuzilmalar tomonidan qoplab berildi. 1998

yilning birinchi choragida ustuvor ilmiy yo‘nalishlar doirasida olimlar orasidan saylov jarayoni tashkil etildi. Xorazm Ma’mun akademiyasi tarkibida tarix, arxeologiya, falsafa, til va adabiyot, biologiya yo‘nalishlari bo‘yicha ilmiy bo‘linmalarni tashkil etilishi yuzasidan zarur chora-tadblar amalga oshirildi. Xorazm Ma’mun akademiyasini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademianing haqiqiy a’zolari (akademiklari) ikki nafarga ko‘paytirildi va O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiya Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi bilan birgalikda Xorazm Ma’mun akademiyasi va uning bo‘linmalariga iste’dodli yosh olimlar va yuqori malakali mutaxassislarni jalg qilish ishlari tashkil etildi. Albatta yangidan tashkil etilgan Xorazm Ma’mun akademiyasi yurtimizda ilm-fanning rivojlanishida o‘z hissasini qo‘sib kelmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasи 2004-yil 9-noyabrda 532-sonli “Xorazm Ma’mun akademiyasining 1000 yilligini nishonlash to‘g‘risida” va 2005-yil 1-noyabrdagi 240-sonli “Xorazm Ma’mun akademiyasi faoliyatini takomillashtirish va 1000 yillik yubileyini nishonlashning qo‘sishma chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarorlar qabul qildi. Shunday qilib, Xorazm Ma’mun akademiyasi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademianing mintaqaviy bo‘limi sifatida tiklandi. YUNESKO Bosh konferensiyasining 32-sessiyasida Xorazm Ma’mun akademiyasining 1000 yilligini nishonlash bo‘yicha yubiley tadbirlarida YUNESKOning ishtirok etishi haqida qaror qabul qilindi. Ushbu qaror doirasida 2005 yilda Xorazm Ma’mun akademiya sining 1000 yillik tantanalari keng nishonlandi. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiya Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Respublika “Ma’naviyat va ma’rifat” markazi, “Ibn Sino” hamda “Oltin meros” jamg‘armalari, Xorazm viloyati hokimligi bilan birgalikda 2005-yil oktyabr oyida “Xorazm Ma’mun akademiyasi va uning jahon ilm-fani taraqqiyotidagi o‘rni” mavzusida xalqaro ilmiy konferensiya tashkil etdi. Shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiya Tashqi ishlар vazirligi va YUNESKO ishlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy komissiyasi bilan hamkorlikda 2006-yil 20-sentabrdan – 12-oktabrgacha YUNESKOning shtab-kvartirasida ko‘rgazma tashkil qilishdi va Xorazm Ma’mun akademiyasining 1000 yilligiga bag‘ishlangan ilmiy anjuman o‘tkazishdi. O‘zbekistondagi xorij davlatlarning qator elchixonalari O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi olimlari ishtirokida Xorazm Ma’mun akademiyasi faoliyatiga bag‘ishlangan tadbirlar o‘tkazishdi, shunday konferensiyanı yana Saudiya Arabistonı ilmiy-tadqiqot markazi Koreyaning Kyongxi universiteti bilan birgalikda o‘tkazildi. Xorazm Ma’mun akademiyasi faoliyati davomida ko‘plab ilmiy ishlanmalar va monografiyalar ilmiy tadqiqot asarlari yaratildi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan 6 ta ustuvor yo‘nalishga asosan tarix, etnografiya, ekologiya, biologiya, qishloq xo‘jaligi sohalari bo‘yicha tadqiqotlar yo‘lga qo‘yildi. 2006

yilda da 2 ta fundamental, 8 amaliy va 1 ta innovatsiya loyihalari bo‘yicha ilmiy izlanishlar amalga oshirildi. Xalqaro loyihalar asosida malakali kadrlar tayyorlash maqsadida Yevropaning qator davlatlariga stajirovka uchun yuborildi. Jumladan Germaniyaning Vaynshtefan amaliy fanlar universitetining xalqaro magistratura loyihasi bo‘yicha 6 nafar talaba o‘qishga yuborildi, G‘arbiy Chexiya universiteti aspiranturasiga 1 nafar xorazmlik mutaxassis qabul qilindi. Yevropa Ittifoqining TEMPUS dasturining ikkita SCM va Erasmus Mundus dasturining External Cooperation Window loyihalarini qo‘lga kiritdi. Erasmus Mundus bo‘yicha 2 nafar talaba Belgianing Erasmusxogesxul va 3 nafar talaba Chexiyaning Masarik universitetlarida bir yil ta’lim olib kelish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Bundan tashqari 2 nafar o‘qituvchi Fransiyaning Parij va Belgianing Erasmusxogesxul universitetlarida 1 oy dars berish va malakalarini oshirish, 2 nafar o‘qituvchi Polshaning Adam Mitskevich va Chexiyaning Masarik universitetlarida o‘zlarining ilmiy izlanishlarini davom ettirish huquqini qo‘lga kiritdilar. Ilm-fan tarmog‘idagi erishilayotgan yutuqlarni ilm ahliga yetkazish maqsadida 2006 yilda “Xorazm Ma‘mun akademiyasi axborotnomasi” ilmiy jurnali O‘zbekiston Fanlar akademiyasi tomonidan ta’sis etildi. Hozirda Xorazm Ma‘mun akademiyasi tarkibida arxeologiya, tarix va falsafa, biologiya muammolari va til va adabiyot bo‘limlari faoliyat ko‘rsatmoqda. Ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishda 31 ilmiy xodim, 5 fan doktori va 9 ta fan nomzodlari amaliy yordam ko‘rsatib kelmoqdalar. Arxeologiya, tarix va falsafa bo‘limida Xorazmning qadimgi va o‘rta asrlar o‘zbek davlatchiligi tarixi, O‘zbek xalqining etnik tarixida Xorazm vohasining o‘rni, IX-XIII asrlarda Xorazmda ilmiy-madaniy ko‘tarilish jarayonida Xorazm Ma‘mun akademiyasining tarixiy xizmati, til va adabiyot bo‘limida esa IX-XIII asrlarda Movarounnahr va Xorazmdagi adabiy jarayonlar bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Shuningdek arxeologiya, tarix va falsafa bo‘limida 21 ta, Til va adabiyot bo‘limida 16 ta, biologiya muammolari bo‘limida 15 ta ilmiy, ilmiy-ommabop maqolalar, risolalar, imiy-tadqiqot asarlari nashr etildi. Tarix sohasida Markaziy Osiyo xalqlari tarixini o‘rganish bo‘yicha Fransiya instituti bilan ilmiy aloqalar yo‘lga qo‘yilgan. Til va adabiyot, arxeologiya, tarix va falsafa bo‘limlarida olib borilgan va yakunlangan ilmiy-tadqiqot ishlari ham shu paytgacha mavjud bo‘lgan ma’naviyat, ma’rifat, madaniyat manbalarini boyitishga xizmat qilib kelmoqda. Shuningdek nufuzli tashkilotlar va o‘quv yurtlari bilan hamkorlikda Xorazmda ilk davlatchilikning vujudga kelishi va bu borada olib borilayotgan tadqiqotlar, buyuk vatandoshlarimiz Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligi, Ogahiy tavalludining 190 yilligini, Avestoning yaratilganligining 2700 yilligi, Jahon madaniyati xalqaro tinchlik uchun mavzularidagi ilmiy-amaliy anjumanlarni o‘tkazilganligini alohida qayd etmog‘imiz zarur. Ma’naviy qadriyatlarimizni targ‘ib etadigan, mamlakatimiz taraqqiyotiga,

tinchlikni mustahkamlashga oid bunday anjumanlar har yili tashkil etilish jarayoni yo‘lga qo‘yilgandir. Akademianing nashriyot va matbaa birlashmasida olimlarimizning ilmiy izlanishlari, monografiyalar, ilmiy to‘plamlar, dissertatsiya ishlarining muhim hujjatlari endilikda muntazam ravishda chop etib kelinmoqda. Shuningdek, xodimlarining xalq xo‘jaligini rivojlantirish, turmush farovonligini oshirish, ma’naviy kamolotga xizmat qiladigan ilmiy ishlari imtiyozli ravishda chop etib berilyapti. Shu paytgacha 16 ta risola va ilmiy-ommabop ishlar chop etilgan. Hozirgi davrdagi muammolar: zarur manbalar, adabiyotlar arxeologiya, tarix va falsafa, til va adabiyot bo‘limlari ish samaradorligini oshirish uchun shu fanlarga oid kitoblar, qo‘lyozma manbalarini Rossiya, Angliya, Turkiya, Misr, Eron, Pokiston, Ozarbayjon kabi mamlakatlar bilan hamkorlik qilib qo‘lyozma manbalarini internet tizimiga ulanib, sohalar bo‘yicha yetakchi ilmiy muassasalar bilan hamkorlikni yanada mustahkamlashni davrni o‘zi taqozo etib turibdi. Bugungi kun talablaridan kelib chiqqan holda jahon tarixiy-madaniy merosi va sivilizatsiyasi markazlaridan biri bo‘lgan, davlatchilik, urbanizatsiya, moddiy va ma’naviy madaniyat tarixida alohida ahamiyatga ega ekanligi hamda vohada mamlakatimizning mashhur arxeologik, shaharsozlik, me’moriy yodgorliklari joylashganligi va hozirgi davrda xalqaro turizmning yirik maskanlaridan biriga aylanganligini hisobga olib, Xorazm Ma’mun akademiyasi faoliyatini yanada rivojlantirish yanada ahamiyatlidir. Xorazmning qadimiy tarixini uzviy izchillikda o‘rganish, betakror sivilizatsiyasi va madaniyatini, boy ilmiy salohiyatining jahon fani va madaniyati taraqqiyotidagi o‘rni masalalarini tadqiq etish jarayoni takomillashtirilmoqda . Xorazm vohasida joylashgan arxeologik yodgorliklarni o‘rganish bo‘yicha doimiy arxeologik ekspeditsiyalar olib borish, ethnologik tadqiqotlar va manbashunoslik ishlarini tizimli ravishda tashkil etish va ularning natijalarini jahon ilmiy jamoatchiligi oldida keng targ‘ib qilish ishlari olib borilmoqda. Xorazm vohasi me’moriy yodgorliklarini biologik, fizik va turli salbiy ta’sirlardan muhofaza qilishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish borasida tizimli ishlar yo‘lga qo‘yilgan. Viloyatda ilm-fan bilan bog‘liq barcha ishlarni zamon talablari darajasida muvofiqlashtirish maqsadida huzurida ilmiy-muvofiqlashtiruvchi kengash tashkil etildi va viloyatda ilm-fanning rivojlantirish jarayoni tashkil etildi va tegishli tartibda tegishli dasturlar ishlab chiqildi.

Ilm-fanning yanada rivojlantirish va uning zamonaviy infratuzilmasini yaratishda avvalo, ilmiy tashkilotlar va oliy ta’lim muassasalarining ilmiy labaratoriyalari zamonaviy uskunlar bilan jihozlanishi alohida e’tibor berilib, yo‘nalishlari doirasidan kelib chiqib ilmiy-tadqiqot va oliy ta’lim muassasalarining tegishli ilmiy va ilmiy-pedagog xodimlari uchun o‘quv seminarlar, respublika va xalqaro konferensiyalar o‘tkazilishini, fan-ta’lim integratsiyasini yanada rivojlantirish maqsadida akademianing ilmiy xodimlarini respublika oliy ta’lim

muassasalaridagi o‘quv jarayoniga keng jalg etishni hamda professor-o‘qituvchilar va talabalarning o‘quv amaliyotlari va izlanishlari mavzularidan kelib chiqib Xorazm tarixi va madaniyati muzeyi, axborot-resurs markazi va laboratoriyalardan samarali foydalаниши учун барча shar-sharoitlar yaratib berildi. Fanlar akademiyasi bilan birgalikda akademianing Xorazm tarixi va madaniyati muzeyini tarixiy sayyohlik yo‘nalishiga kiritishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirildi. 2017-yilning noyabr oyida Xiva shahrida “Xorazm Ma’mun akademiyasining rivojlanish istiqbollari” mavzusida respublika ilmiy konferensiyasini o‘tkazildi va akademianing ilmiy salohiyatini yuksaltirishga qaratilgan yana ko‘plab ishlar amalga oshirildi. Akademiya faoliyatining asosiy ustuvor yo‘nalishlaridan kelib chiqib ilmiy tadqiqot va oliv ta’lim muassasalarining tegishli ilmiy va ilmiy-pedagogik xodimlari uchun faoliyati bilan tanishtirish va fan yangiliklarini tanishtirish va fan yangiliklarini o‘rgatish maqsadida 2017 yilda qisqa kurslarni tashkil etildi. Fan-ta’lim integratsiyasini yanada rivojlantirish maqsadida akademianing ilmiy xodimlarini respublika oliv ta’lim muassasalaridagi o‘quv jarayoniga keng jalg etishni hamda professor-o‘qituvchilar va talabalarning o‘quv amaliyotlari va izlanishlari mavzularidan kelib chiqib akademianing muzeyi, axborot-resurs markazi va laboratoriyalardan samarali foydalанишини ta’minlash, xususan Urganch davlat universiteti, O‘zbekiston Milliy universiteti, Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, Toshkent davlat agrar universiteti, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Urganch filiali va Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiallari bilan integratsiyalashuv jarayoni amalga oshirildi. Xorazm Ma’mun akademiyasining ilmiy xodimlarini xorijning yetakchi ilmiy markazlarida malaka oshirish va tadqiqotlar o‘tkazishga yuborish. Xususan Yaponiya, Koreya Respublikasi, Amerika Qo‘shma Shtatlari, Germaniya va boshqa rivojlangan mamlakatlar ilmiy markazlari bilan hamkorlik o‘rnatilib mutaxassislar almashinuvi yo‘lga qo‘yildi. Akademiya qoshida 2017 yildan muntazam ravishda Urganch davlat universiteti bilan hamkorlikda “Xorazm Ma’mun akademiyasining tarixiy-arxeologik o‘qishlari” nomli har yillik respublika konferensiysi o‘tkazilib kelinmoqda. Shu yilning may oyida “Xorazm vohasi tarixi” mavzusida ilmiy-amaliy konferensiya tashkil etish va uning doirasida akademik Yahyo G‘ulomov nomidagi ilmiy-amaliy seminar o‘tkazildi. Akademianing Xorazm tarixi va madaniyati muzeyini zamonaviy texnik vositalar bilan jihozlash ishlari olib borilib zamonaviy texnik vositalar bilan ta’minlandi. Shu bilan birgalikda 2017-2018-yillar Xorazm tarixi va madaniyati muzeyini zamonaviy texnik vositalar bilan jihozlash ishlari olib borilib, Xorazm vohasidagi arxeologik yodgorliklarning katalogi va arxeologik xaritasini chop etildi, noyob kitoblar fondini boyitilib xorazm tarixiga oid arxiv manbalari va qo‘lyozmalarining nusxalari, shuningdek elektron shaklda kitoblarni qayta nashr etish

ishlari ham olib borilib bir qancha asarlar qayta nashr etildi. Akademik Ziyo Bunyodovning “Gosudarstvo Xorezmshaxov Anushteginidov” monografiyası, Akademik Yahyo G’ulomovning “Istoriya orosheniya Xorezma” kitobi G.P. Snesarevning “Relikti domusulmanskix verovaniy i obryadov u uzbekov Xorezma” nomli asarlar qaytadan chop etildi. Jaloliddin Manguberdi haqida ilmiy kitob tayyorlash va nashr etildi Xiva “Ichan qal’a” muzey qo‘riqxonasi qo‘lyozma fondining katalogini tuzilib chop qilindi. 5 jildlik Xorazm tarixi monografiyasining 1-2 jildlarini nashr etish O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi bilan hamkorlikda “Xorazm durdonalari” katalogi va bukletlarini chop etildi, boshqa tashkilotlar xodimlari va viloyat mehmonlarining Xorazm tarixi va madaniyati muzeyiga tashrifi ham ancha ortganligini ko‘rishimiz mumkin.

Xulos qilib aytganda, Fanlar akademiyasi tizimidagi ilmiy-tadqiqot muassasaları, oliy o‘quv yurtlari, tarmoq institutlar, ilmiy va innovatsion markazlar hamda korxonalarining o‘zaro hamkorligini mustahkamlash, ilm-fan ta’lim sohalaridagi ilmiy innovatsion faoliyatni rag‘batlantiradigan shar-sharoitlarni yaratishga asosiy e’tibor qaratilmoqda. Albatta hukumatimiz tomonidan ilmiy tadqiqot faoliyati bilan shug‘ullanayotgan olimlarimiz uchun shar-sharoit yaratish ishlari amalga oshirilmoqda. Ilm-fan fidoiyatlari uchun davlatimiz o‘zining mavjud imkoniyatlarini ishga solgan holatda ijtimoiy jihatdan ham qo‘llab-quvvatlab kelmoqda, bu albatta soha egalariga yuksak ma’suliyat yuklaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

- 1.I.Karimov maqsadimiz –tinchlik, barqarorlik, hamkorlik. Ma’rifat gazetasi 1995 yil 8 noyabr
- 2..Karimov. Ma’rifat gazetasi. 1997 yil 22 oktyabr
- 3.Mirziyoyev.Yangi o‘zbekiston strategiyasi. Toshkent 2021.
- 4.Babashev. F Xorazm Ma’mun - ma’rifat o’chog’i. T.: Iqtisodiyot-Moliya. 2000
- 5.O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997-y., 10-son, 286-modda; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 09.11.2021-y., 06/21/3/1037-son
- 6.Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 9-noyabrdagi 532-son qarori
- 7.Vazirlar Mahkamasi 2005-yil 1-noyabrdagi 240-son qarori